



PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING FIRIBGARLIK JINOYATLARI VIKTIMOLOGIK PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISH FAOLIYATINING O'ZIGA HOS JIHATLARI

Ilxamov Karimboy G'ayrat o'g'li

IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi, 314 guruh kursanti.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada profilaktika inspektorlarining firibgarlik jinoyatlari bo'yicha viktimologik profilaktikani amalga oshirish faoliyatining o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Xususan, firibgarlik jinoyatlaridan jabrlanuvchi bo'lish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarni aniqlash, ularning viktimlik xususiyatlari, ijtimoiy-psixologik omillari hamda mazkur jinoyat turining oldini olishda profilaktika inspektorlarining o'рни va vazifalari ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, amaldagi qonunchilik, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati va ilg'or xorijiy tajriba tahlili asosida viktimologik profilaktikani takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va xulosalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: profilaktika inspektori, firibgarlik jinoyati, viktimologiya, viktimologik profilaktika, jabrlanuvchi, jinoyatlarning oldini olish, huquqbuzarliklar profilaktikasi, ijtimoiy profilaktika.

Bugungi kunda jamiyatda sodir etilayotgan jinoyatlar orasida firibgarlik jinoyatlari alohida o'rin egallab, ularning soni va shakllari yil sayin ortib bormoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi hamda aholining huquqiy ongi yetarli darajada shakllanmaganligi firibgarlik jinoyatlarining keng tarqalishiga zamin yaratmoqda. Bu esa mazkur jinoyatlarning oldini olishda yangi, samarali va ilmiy asoslangan profilaktik yondashuvlarni talab etmoqda.

Firibgarlik jinoyatlarini barvaqt oldini olishda nafaqat jinoyat sodir etuvchi shaxsga, balki jinoyatdan jabrlanuvchi bo'lish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarga qaratilgan viktimologik profilaktika muhim ahamiyat kasb etadi. Viktimologik yondashuv jinoyatning kelib chiqish sabab va shart-sharoitlarini chuqur o'rganish, jabrlanuvchilarning xulq-atvori, ijtimoiy holati va psixologik xususiyatlarini tahlil qilish orqali jinoyatchilikning oldini olish imkonini beradi.

Mazkur jarayonda profilaktika inspektorlarining o'рни alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular aholi bilan bevosita ish olib boruvchi, hududdagi kriminogen vaziyatni yaxshi biluvchi va profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiruvchi asosiy sub'ekt hisoblanadi. Shu bois, profilaktika inspektorlarining firibgarlik jinoyatlari bo'yicha viktimologik profilaktikani amalga oshirish faoliyatining o'ziga xos jihatlari ilmiy tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shuni nazarda tutish lozimki, profilaktika inspektorining huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi bo'yicha faoliyatini tashkil etish mamlakatimizda sog'lom turmush tarzini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning ajralmas tarkibiy kicmidir. Ayni paytda bizning nazapimizda, huquqbuzarliklarni jamiyat xayotidan alohida ajratgan xolda olib qarash mumkin emas. Albatta, huquqbuzarliklar, jamiyat xayoti uchun



xavfli illat. Profilaktika inspektorining faoliyatida huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini tashkil etish tushunchasi haqida soʻz yuritish ekanmiz, ushbu faoliyatning funksiyalaridan kelib chiqqan xolda uning tarixiga toʻxtalib oʻtayotganligimiz bejiz emas. Zero xar qanday ijtimoiy xodisaning tadrijini oʻrganishda uning tarixiy rivojlanishiga murojat etilmasa, masalaning mohiyati toʻla ochilmay qoladi.

Ushbu tadqiqotlar natijalarini oʻrganib chiqish asosida, jumladan yuqorida kursatib oʻtilgan bir qator salbiy omillar natijasida jabrlanuvchilar ongida notoʻgʻri tushunchalar paydo boʻlishi, yillar ahloqidagi salbiy xolatlar huquqbuzarlik codir etishga moyil shaxslarda aynan oʻsha jabrlanuvchilarga nichbatan tajovyzkorona xatti-xarakatlar codir etishga undashni keltirib chikaradi degan qisqacha xulocaga keldik.

Bunday tadqiqotlarda viktimologik profilaktikani amalga oshirishda maʼym xolatlar natijasida gʻayrihuquqiy hatti-harakatlar sodir etgan shaxclar ongida «ijtimoiy-ahlokiy yovuzlikka moyillik kelib chikqa boshlashi mumkinligini alohida taʼkidlagan edik.

Bu fikplarga qoʻshilgan xolda shuni takidlash lozimki, huquqbuzarliklar kelib chiqishining muhim manbai baʼzi xollarda jabrlanuvchilar-ninig ongidagi ijtimoiy-ruxiy kechinmalarga ham bogʻlik.

Turli huquqiy adabiyotlarni oʻrganish davomida shunga amin boʻldikki, xar qanday huquqbuzarlik, shaxcning muhit bilan oʻzaro munocabati natijasidir. Shuning uchun ham muhit vaziyat tushunchasi xali batafsil oʻrganib chiqilishi kerak boʻlgan masalalar qatoriga kirali. Zero huquqbuzarlik vaziyati yuzaga kelishi va rivojlanib borishida turli hulk-atvorga ega odamlar ishtirok etadilar va shuning uchun ham bu shaxclarning obʼektiv va subʼektiv xislatlari qanday ekanligini bilish huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini tashkil etishda muhim oʻrin tutadi.

Jamiyatda jinoyatchilikka qarshi kurashishda firibgarlik jinoyatlari alohida eʼtibor talab etadigan ijtimoiy xavfli qilmishlardan biri hisoblanadi. Firibgarlik jinoyatlarining oʻziga xosligi shundaki, ular aksariyat hollarda zoʻravonliksiz, jabrlanuvchining ishonchi, huquqiy bilimi pastligi yoki psixologik holatidan foydalangan holda sodir etiladi. Shu sababli mazkur jinoyatlarning oldini olishda anʼanaviy jinoyatchilikka qarshi choralar bilan bir qatorda, viktimologik yondashuv asosida profilaktika ishlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Firibgarlik jinoyati Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida mulkiy huquq va manfaatlarga qarshi jinoyat sifatida belgilanib, uning asosiy mazmuni aldash yoki ishonchni suiisteʼmol qilish orqali boshqa shaxsning mol-mulkini yoki mulkiy huquqini qoʻlga kiritishda ifodalanadi. Zamonaviy sharoitda firibgarlik jinoyatlari anʼanaviy shakllar bilan cheklanib qolmasdan, axborot texnologiyalari, internet tarmoqlari, elektron toʻlov tizimlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali sodir etilayotgan murakkab koʻrinishlarga ega boʻlmoqda. Bu esa jabrlanuvchilar doirasining kengayishiga, jinoyat oqibatlarining ogʻirlashuviga olib kelmoqda.

Viktimologiya nuqtai nazaridan firibgarlik jinoyatlarini tahlil qilish jabrlanuvchining jinoyat mexanizmida tutgan oʻrnini aniqlash imkonini beradi. Jabrlanuvchi koʻp hollarda jinoyat sodir etilishi uchun maʼlum darajada sharoit yaratib beradigan omil sifatida namoyon boʻladi. Bu holat jabrlanuvchini ayblash maqsadini emas, balki jinoyatning oldini olish uchun uning xulk-atvori, ijtimoiy holati va psixologik xususiyatlarini hisobga olish



zarurligini anglatadi. Firibgarlik jinoyatlarida jabrlanuvchilar, odatda, huquqiy bilim darajasi past, ishonuvchan, tez ta'sirlanuvchi, moddiy manfaatga o'ta qiziquvchan yoki qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan shaxslar bo'ladi.

Firibgarlik jinoyatlaridan jabrlanuvchi bo'lish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarning viktimologik xususiyatlarini o'rganish profilaktika ishlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday shaxslar qatoriga keksa yoshdagilar, yolg'iz fuqarolar, ishsizlar, tadbirkorlik faoliyatini endi boshlayotgan shaxslar, internet va raqamli texnologiyalardan yetarli darajada xabardor bo'lmagan aholi qatlamlari kiradi. Shuningdek, firibgarlik jinoyatlarining sodir etilishiga ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, aholining daromad darajasi pastligi, tez boyish istagi, psixologik bosim va ishonch muhitining buzilishi kabi omillar ham salmoqli ta'sir ko'rsatadi.

Firibgarlik jinoyatlarining oldini olishda profilaktika inspektorlarining roli alohida ahamiyatga ega. Profilaktika inspektorlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida aholi bilan bevosita ish olib boruvchi, hududdagi kriminogen vaziyatni doimiy tahlil qilib boruvchi asosiy sub'ekt hisoblanadi. Ularning huquqiy maqomi va vakolatlari qonun hujjatlarida belgilab berilgan bo'lib, jinoyatlarning barvaqt oldini olish, huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish va aholining huquqiy ongini oshirish ularning asosiy vazifalari qatoriga kiradi.

Profilaktika inspektorlarining firibgarlik jinoyatlari bo'yicha faoliyati nafaqat jinoyat sodir etuvchi shaxslarga, balki potensial jabrlanuvchilarga qaratilgan bo'lishi lozim. Viktimologik profilaktika doirasida inspektorlar jinoyatdan jabrlanish xavfi yuqori bo'lgan shaxslarni aniqlash, ular bilan individual profilaktik suhbatlar o'tkazish, huquqiy tushuntirish ishlarini olib borish hamda xavfli vaziyatlarni bartaraf etish choralari ko'rishlari zarur. Bunda profilaktika inspektorlarining aholi bilan ishonchli munosabat o'rnatishi, ularning muammolariga befarq bo'lmasligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Viktimologik profilaktikaning asosiy shakl va usullari qatoriga aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot ishlarini olib borish, ommaviy axborot vositalari orqali ogohlantirish, ijtimoiy tarmoqlarda profilaktik kontent tarqatish, xavf guruhiga kiruvchi shaxslar bilan yakka tartibda ishlash kabi choralar kiradi. Profilaktika inspektorlari ushbu usullarni hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llashi lozim. Ayniqsa, firibgarlikning yangi usullari haqida aholini tezkor ravishda xabardor qilish jinoyatlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, firibgarlik jinoyatlari bo'yicha viktimologik profilaktikani amalga oshirishda ayrim muammo va kamchiliklar mavjud. Jumladan, profilaktika ishlarining formal xarakter kasb etishi, aholining barcha qatlamlari qamrab olinmasligi, profilaktika inspektorlarining yuklamasi ortiqchiligi hamda zamonaviy texnologiyalardan yetarli darajada foydalanilmayotganligi shular jumlasidandir. Ushbu muammolar profilaktika ishlarining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, firibgarlik jinoyatlarining oldini olishda viktimologik yondashuv keng qo'llanilmoqda. Ayrim davlatlarda aholining huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan maxsus dasturlar, internet firibgarligiga qarshi ogohlantiruvchi platformalar va interaktiv axborot tizimlari joriy etilgan. Bunday



tajribalarni milliy huquqni muhofaza qilish amaliyotiga joriy etish profilaktika inspektorlari faoliyatini yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

Firibgarlik jinoyatlari bo'yicha viktimologik profilaktikani takomillashtirish uchun profilaktika inspektorlarining kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularni viktimologiya va psixologiya sohasida qo'shimcha bilimlar bilan ta'minlash, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish maqsadga muvofiq. Elektron ma'lumotlar bazalari, raqamli monitoring tizimlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali profilaktika ishlarini tashkil etish jinoyatlarning oldini olishda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Tahlillardan kuzatish mumkinki, firibgarlikning sodir etilishining asosiy sabablardan biri shaxslardagi pulga bo'lgan extiyojning mavjudligidadir. Shuni unutmaslik lozimki, shaxslarda firibgarlik jinoyatini sodir etishga undovchi boshqa turdagi extiyojlar ham mavjud. Har qanday insonda jismoniy ehtiyoj qondirishga bo'lgan xoxish kuchliroq bo'ladi. Huquqshunos olimlarning fikriga ko'ra, ayrim toifadagi firibgarlar xayotda zaruriy ehtiyojni qondirish estagida firibgarlikka qo'l urishadi. Firibgarlar orasida spirtli ichimlikka ruju qo'ygan va giyohvandlikka chalinganlarda asosan bunday xolat kuzatiladi. Chunki, ularda hayotga, yaxshi yashashga bo'lgan qiziqish so'ngan bo'ladi. Ular faqatgina kundalik jismoniy ehtiyojini qondirish maqsadida bo'lishadi.

U yoki bu xayotiy xolatlarga ko'ra jamiyatning har qanday a'zosi ham bunday aldov yoki ishonchining suiist'emol qilinishiga duch kelishi tabiiydir. Bundan tashqari ushbu jinoyatning farqli tomoni shundaki, firibgarlar ochiq harakat qiladi va o'z qurbonini karaxt xolatga tushuradi. Aldash xolatini birdaniga aniqlanmaydi, balki muayyan vaqt o'tgandan aldanish alomatlari kuzatiladi. Bu vaqtda esa firibgar o'zganing mulki yoki mulkka bo'lgan huquqini qo'lga kiritadi hamda bo'lib o'tgan xolat yuzasidan kerakli bo'lgan tavsilotlarni yashirishga ulguradi.

Jinoyatlar natijasida fuqarolarga moddiy va ma'naviy zarar yetkaziladi. Xuddi shuningdek firibgarlik jinoyatidan jabr ko'rgan shaxslarda ham bunday holat kuzatiladi. Biroq firibgarlik ayrim turdagi jinoyatlardan, jumladan o'g'rilik jinoyatidan o'ziga xos jixatlari bilan farq qiladi. Masalan, o'g'rilik jinoyatining sodir etilishida jabrlanuvchilarning o'z mulkini ochiq qoldirilishi yoki unga bo'lgan beparvoligi sharoit yaratadi. Xuddi shuningdek ushbu turdagi jinoyat o'zganing mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilish kabi xatti-harakatlar bilan ifodalanadi. Firibgarlikning sodir etilishida ug'irlikdan farqli ravishda jabrlanuvchilar xulq-atvoridagi o'ta ishonuvchanlik sharoit yaratadi. Shuningdek, ushbu jinoyatning ug'irlik jinoyatidan farqli bo'lgan asosiy jixati jabrlanuvchi o'ziga tegishli bo'lgan moddiy qimmatliklarini o'z qo'li bilan jinoyatchiga topshirishidadir.

Firibgarlikning bir qator turlari farqlansada, uning sodir etilishida umumiy xarakterdagi quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni kuzatish mumkin:

- jinoyatchilar jabrlanuvchilarga ta'sir o'tkazish maqsadida psixologik metodlarni chuqur qo'llashadi;
- jabrlanuvchilar jinoyatchining o'zini tutish sabablari va jinoiy xatti-harakatlarini sezmaydi;
- jabrlanuvchilar hech mubolag'asiz va ikkilanishlarsiz jinoyatchiga o'zining mulki va boyliklarini o'z xoxishi (o'z qo'llari) bilan beradi;
- ko'pgina xolatlarda firibgarlar guruh-guruh bo'lib ishlashadi;



- firibgarlar ayrim xollarda murakkab qo‘rilma va buyumlardan foydalanishadi;
- atrofdagilarning firibgarlarga nisbatan befarqligi kuzatiladi.

Qonunda firibgarlik uchun qatt‘iy jazo choralari belgilangan bo‘lsada, biroq firibgarlar tomonidan fuqarolarni mulkini egallash maqsadida ularni aldash davom etadi. Chunki, jazoning og‘irligi bu turdagi jinoyatlarni oldini olishga xizmat qiladi degan fikrdan yiroq yo‘rishimiz lozim. Firibgarlikning oqibatini bartaraf etish uchun uning sabab va sharoitini chuqur tahlil qilib borish maqsadga muvofiqdir.

Firibgarlik bilan bog‘liq jinoyatchilikka qarshi kurashning eng muhim va asosiy yo‘nalishlaridan biri mazkur turdagi jinoyatlarning barvaqt profilaktikasidir.

Ushbu profilaktikaning o‘ziga xos jihatlaridan biri sodir etilayotgan firibgarlik jinoyatlarining sabab va sharoitlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish choralarini ko‘rishdir. Shuningdek, profilaktik chora-tadbirlarni qo‘llash samaradorligi huquqni muxofaza qiluvchi organlarning keng jamoatchilik bilan hamkorligining to‘g‘ri tashkil etilganligiga bog‘liqdir.

Xulosa qilib aytganda, profilaktika inspektorlarining firibgarlik jinoyatlari bo‘yicha viktimologik profilaktika faoliyati jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimida muhim o‘rin tutadi. Mazkur faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish, mavjud muammolarni bartaraf etish va ilg‘or tajribalarni joriy qilish orqali firibgarlik jinoyatlarining oldini olish samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025 yil 26 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>
2. Aliqulovich T. A., Shukurjon o‘g‘li I. J. Кибержиноятларга қарши курашнинг замонавий тенденциялари //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 30. – С. 33-40.
3. Aliqulovich T. A., Bahodir o‘g‘li B. A. Raqamli texnologiyalar orqali sodir etiladigan tovlamachilik jinoyatlariga qarshi kurashishning o‘ziga xos jihatlari //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 29. – С. 9-14.
4. Aliqulovich T. A., Axmat o‘g‘li M. A. Majburiy jamoat ishlari bilan bog‘liq jazoga hukm qilingan shaxslar bilan ishlashda iio profilaktika inspektorlarining asosiy vazifalari //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 29. – С. 4-8.
5. Aliqulovich T. A., Ilhom o‘g‘li B. S. Badanga og‘ir tan jaroxati yetkazish bilan bog‘liq jinoyatlar profilaktikasini tushunchasi va uni amalga oshirish choralari //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 29. – С. 87-92.
6. Aliqulovich T. A. et al. Терроризм билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этиш этиш ва амалга оширишнинг хусусиятлари //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 29. – С. 15-20.
7. Aliqulovich T. A., Shavkat o‘g‘li C. A. Voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy zo‘ravonliklarning viktimologik profilaktikasi tushunchasi, turlari va ijtimoiy xavfi //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 30. – С. 213-219.



8. Aliqulovich T. A., Shavkat o'g'li C. A. Voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy zo'ravonlik jinoyatlarini oldini olishning huquqiy asoslari //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 30. – С. 220-226.

9. Таштемиров А. А. и др. Профилактика инспекторининг нодавлат нотижорат ташкилотлари билан ҳамкорлигининг ўзига хос хусусиятлари //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2025. – Т. 4. – №. 47. – С. 189-196.